

G'ARB DAVLATLARIDA GEOGRAFIYA TA'LIMINI O'QITILISHI

¹Ibroimov Sherzod Ibroim o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Geografiya kafedrasi tayanch doktoranti

sh.ibroimov@cspi.uz

²Tulavayeva Sangina Ergashvoy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi

Sanginatulavayeva@gmail.com

Annotation. Ushbu maqolada xorijda geografiya fanini o'qitilishi, davriyiligi, singdirilib o'qitilishi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, umumlashgan, uyg'unlik, fanlar tizimi, innovatsiya, didaktik o'yinlar, metodlar, termin, matematika, fanlar tizimi.

ПРЕПОДАВАНИЕ ГЕОГРАФИИ В СТРАНАХ ЗАПАДА

Аннотация. В данной статье представлена информация об изучении географии за границей, ее периодичности, обучении с погружением и ее связи с другими предметами.

Ключевые слова: естествознание, обобщенное, гармония, система наук, новаторство, дидактические игры, методы, термин, математика, система наук.

TEACHING GEOGRAPHY IN THE WESTERN COUNTRIES

Abstract This article provides information on the teaching, periodicity, integration of geography abroad and its connection with other disciplines.

Keywords: natural sciences, generalization, harmony, science system, innovation, didactic games, methods, terminology, mathematics, science system.

KIRISH

Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarda geografiya ta’limi asosiy tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslaridan tashkil topgan. Shahar va qishloq joylaridagi barcha mamlakatlarda yagona o‘quv rejasi asosida o‘tkaziladi.

Ikkinci guruh mamlakatlarida geografiya bilimlari maxsus fanlar tarzida emas, balki integratsiya (birikma) tarzida bo‘lib, boshqa fanlar, kurslar tarkibiga qo‘shilib ketgan. Bunda geografiyanı chuqur o‘rganishni xohlovchilar maxsus fakultativ mashg‘ulotlar orqaligina o‘z bilimlarini oshirishlari mumkin. Shu tufayli ham bu guruhdagi davlatlarda geografiya ta’limi bo‘yicha yagona davlat rejasi yo‘q.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir o‘qituvchi maktab joylashgan sharoit nuqtai nazardan kelib chiqib, o‘quv dasturini tuzishi mumkin. Masalan: AQSHda 1700 dan ortiq maktab okruglari mavjud bo‘lib, ularning barchasi o‘ziga xos bo‘lgan geografiya ta’limi mavjud va bir - biriga o‘xshamaydigan dasturlar bo‘yicha ish yuritiladi.

Uchinchi guruh mamlakatlarda geografiya majburiy o‘rganiladigan fanlar qatoriga kirmaydi va uni fakultativlar orqali o‘rganish, asosiy o‘rinni egallaydi. Umuman olganda Yevropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida barcha o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lgan fanlar qatorida, xilma - xil murakkablikdagi fakultativ kurslar turi keng tarqaldi. Jalon tajribasida 3 bosqichli ta’lim tizimi asosiy hisoblanadi, ya’ni boshlang‘ich maktab (I - IV - sinf), o‘rta bosqich (V – IX -sinf), yuqori bosqich (IX - XII). Ko‘pchilik davlatlarda har bir bosqichdagi ta’limda o‘qish yili o‘zgarib turadi., boshlang‘ich maktabda 6 - 9 yosh, o‘rta bosqich 10 - 14 yosh, yuqori sinfda 14 - 16 yoshni tashkil qiladi. Har bir bosqichda geografiya ta’limi o‘ziga xos maqsadga ega. Masalan: birinchi bosqich maktabda geografiya ta’limining asosiy maqsadi, yaqin atrof-muhitni o‘rganish, moddiy va ma’naviy boyliklarga nisbatan mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat. Ikkinci bosqichda o‘z mamlakatining xo‘jalik hayotini o‘rganish zarur kasblar haqida ma’lumotlar olish, ta’limiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Uchinchi bosqichdagi maktablarda insoniyatning global muammolarini va jahon xo‘jaligini o‘rganishdan iborat. Jalon tajribasida geografiya o‘qitishning ahvoli muhim emas. Shu tufayli uni o‘quvchilarga o‘qitish bo‘yicha ikki fikr tarafдорларининг fikri - o‘quv rejalarda geografiyanı mustaqil fan sifatida muntazam o‘tishni amalga oshirish bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish tarafдорлари geografiyanı boshqa o‘quv fanlari bilan integratsiya (birikma) tarzida qo‘shib, o‘tishni isbotlab berishga urinadilar.

NATIJALAR

O'quv fanlarini biriktirish borasida AQSH jahonda yetakchi bo'lib, 1940 - 1950 yillardagi ta'lif islohotida ko'pgina fanlar qatori geografiya majburiy o'rganiladigan fanlar qatoridan chiqarib tashlandi va tarix, jamiyatshunoslik bilan birlashtiriadi. Geografiyani bunday o'qitish o'qituvchilarga talay qiyinchiliklar tug'diradi. Natijada geografiya ta'limining sifati juda pasayib, oquvchilar zarur ko'nikma va malakaga ega bo'lmay qoladilar. Shu tufayli ham hozirgi kunda AQSHda geografiyani mustaqil fan sifatida tiklash uchun kurash ketyapti. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida fanlarni o'rganish ixtiyoriy bo'lib, o'quvchilar xohish - istaklari ostida amalga oshiriladi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlarga majburiy fanlar soni 7 - 8 dan oshmaydi. Masalan: Finlandiya va Shvetsiyada fin va shved tili, iqtisod va sotsiologiya, biologiya, kimyo, ingliz tili, din va sport majburiy fan hisoblanadi.

Fin muktablarida 9 yillik ta'lifdan keyin, sinsiz gimnaziyalar keng tarqalgan. Bunday gimnaziyalarda ta'lif 2-4 yil davom qiladi. O'quvchilar tuzgan rejali kura rahbarlari va ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi. Gimnaziya o'quv yili 6 davrga bo'lingan. Har bir davr 6 haftadan iborat bo'lib, kurslar 3 soatdan tashkil topadi. Har bir kursdan bittadan fan kuniga 4-7 soat o'qitiladi. Sport darslari mashg'ulotlardan keyin, tushlikdan so'ng o'tkaziladi. Har davr yakunida o'quvchilar bilimi baholanadi. Agar o'quvchi qoniqarsiz baho olsa, shu kursni qaytadan tanlaydi. Deyarli, ko'pchilik mamlakatlar geografiya ta'limi davlatning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy tizimi bilan bog'liq bo'lib, ularda tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'rganish asos qilib olingan. MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tabiat va xo'jalikning rivojlanish qonuniyatlar jamiyat bilan tabiat o'rtaidagi munosabtlar, atrof-muhit muomalari geografiya ta'limining asosini tashkil qiladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda geografiya ta'limining mazmuni jihatidan yuqori bo'lib, o'quvchilardan ma'lum ko'nikmalar shakkantirishga qaratilgan. Bu davlatlarda geografiya ta'limi muammolarini turli nazariya va qonunlarining kategoriylarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarning o'zlashtirishida bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Rivojlangan mamlakatlarda geografiya ta'limida ta'limining ruhiy jahhalari asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchi ruhiyati uning bilish faoliyatini o'rganish katta e'tibor beriladi. Geografiya ta'limida turli matnlar, o'yinlar, imitatsiya keng qo'llaniladi. Ular hatto, ta'lif metodlari sifatida ham qo'llaniladi. Umuman bunday ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni kelgusi hayotga, ya'ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat. Turli mamlakatlarning geografiya o'quv darsliklari va qo'llanmalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda bitta kursni o'qitish uchun bir necha qo'llanma chiqariladi. Ko'pchilik hollarda ular qiziqarli ma'lumotlarga boy

bo‘lib, axborot berish xususiyatlariga ega. Bunday qo‘llanmalarda matn 20 - 40 foizni, tasvir 20 foizni, statistika 20 foizni, savol va topshiriqlar 20 foizni tashkil etadi. Kitobdagagi tasvirlar nihoyatda sifatlari. Quyi sinflar qo‘llanmalarda esa karta yo‘q, ular o‘rnini katta sxemalar egallagan. Matnda raqamli sonlar ko‘p uchramaydi, mavjudlari ham taqqoslash xarakteriga ega bo‘lib, ular eng past, eng kichik, eng baland, eng uzun, eng yuqori kabi tarzlarda berilgan. Angliya geografiya ta’limi metodikasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning kuchli tomonlari quyidagilardan iborat. Ta’limning nazariy tomonlarini kuchaytirish, ya’ni unda hozirgi zamon geografik tadqiqot metodlarini o‘rganish.

Geografiya ta’limi jarayonida psixologik-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish, ta’lim jarayonida tadqiqot metotlaridan unumli foydalanish, o‘quvchilarni gepotezalar tuzishga o‘rgatish;

Darslikda turli mazmundagi eksperimentlar uyuştirish, ya’ni tasavvur, tushuncha va turli xil qarashlarni shakllantirish metodlariga keng o‘rin berilgan. Ammo metodlarni sinash, ta’limni uyuştirish shakllari ancha zaif.

Kapitalistik mamlakatlardagi geografiya ta’limi ko‘p jihatdan o‘sha jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Masalan: **Buyuk Britaniya** maktablarida geografiyadan imtihon biletlarida o‘quvchilarga quyidagi mazmundagi savollarga javob yozish talab etilgan;

1. G‘arbiy Yevropaning transport geografiyasi suv va quruqlik yo‘llarining (Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvetsariyadan tashqari.) bir-biriga nisbatan ahamiyatini baholang;

2. Tabiiy geografiya va insonlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qanday omillar Fransiya va Niderlandiya qishloq xo‘jaligi geografiyasini o‘rganishga yordam beradi.

3. Shimoliy G‘arbiy Yevropaning istalgan 2ta yirik porti geografiyasini qiyoslang?

4. Daniya iqlimining qaysi xususiyatlari sut chorvachiliginining rivojlanishiga yoki rivojlanmasligiga sababchi bo‘ladi?

AQSH maktablarida o‘quvchilar bilimini baholash ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Quyidagi savollardan namunalar keltiramiz:

1. Ko‘p variantli savoldan kerakli javobni topish (eng keng tarqalgan metod). Masalan: Angliya import qiladigan nefting asosiy qismi quyidagi davlatlarning qaysilaridan keltiriladi?

A) Venesuela. B) AQSH. S) Yaqin sharq davlatlari. D) Shimoliy dengiz havzasi. E) Jazoir.

2. Umumlashtirishga oid savollar, masalan: quyidagi shaharlarning ro‘parasiga shu shaharga xos bo‘lgan quyidagi sanoat tarmoqlarini yozing. Kimyo sanoati,

to‘qimachilik sanoati, ichki port,sovun ishlab chiqarish, qand sanoati, neftni qayta ishslash va h. k.

Liverpul-----

Manchester-----

Bolton-----

3. So‘zлari tushib qoldirgan tarzdagi savollar; masalan: Hudud yer yuzasining katta qismlari ... davrda hosil bo‘lgan muz qoldiqlari bilan qoplangan va hokazo.

4. Iqtisodiy hisob- kitob talab qiladigan tarzdagi savollar, masalan: firma egasi ishlab chiqarayotgan sanoat maxsulotining 60 foizini mamlakat ichida, 40 foizini esa chet el firmalariga sotishi kerak. Sanoat va Savdo vazirligi unga maxsulot ishlab chiqarish uchun quyidagi 5 ta hududdan bittasiga korxona qurishga ruxsat berdi, hamma hududda yer uchastkasining bahosi bir xil, korxona qilish uchun quyidagi joylarning qay birini tanlagan ma’qul?

A) Milfordxeyven

B) Dondi.

S) Sautgempton.

D) Liverpul

E) Glazgo.

MUHOKAMA

Deyarli, barcha rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda ekologik ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtirish geografiya dasturlarida yetarlicha o‘rnii egallagan. Maktablarda geografiya bo‘yicha yagona dastur yo‘q. Har bir o‘lka o‘z dasturi va darsliklariga ega. Germaniyada turli maktablar mavjud. Boshlang‘ich asosiy gimnaziya. Birinchi guruh mакtab barcha uchun majburiy hisoblanadi. O‘quvchilar X sinfni tugatganidan keyin, xoxlovchilar yoki gimnaziya, hunar- texnika maktablariga, oliy o‘quv yurtiga kirishi uchun tayyorgarlik ko‘radilar.

Gimnaziya maktablarida dastlabki geografik bilimlar bilan tanishish III-IV sinfdan boshlanadi. Chunki bu sinflarda vatanshunoslik fani o‘rganiladi. Bundan tashqari geografik bilimlar qisman biologiya va tarix fanlari orqali ham beriladi. Germaniya maktablarida geografiya fan sifatida V sinfdan boshlab o‘rganiladi. Bu sinfda asosan, o‘lka geografiyasi o‘qitiladi. Vatanga oid bo‘lgan bilimlar to VIII sinfgacha beriladi. V-VIII sinflarda geografiyaga haftada 2 soat vaqt ajratiladi. Bu sinflarda Yevropadan tashqari mamlakatlar geografiyasi o‘rganiladi. Topografiya va kortografiya asoslari bo‘yicha ham bo‘limlar beriladi. O‘qituvchilar diqqatiga bir necha variantdagi darsliklar tavsiya etiladi. Bular quyidagi ko‘rinishlarda aks etadi. “Mamlakatlar va xalqlar”, “Yer va inson”, “Yer bilimi” va hokazo. IX-X sinflarda

geografiya mustaqil fan sifatida o‘rganilmaydi, desa ham bo‘ladi. Ayrim yerlardagi qiziquvchi o‘quvchilar bilan Yevropa va Germaniya geografiyasi chuqur o‘rganiladi.

Keyingi paytlarda geografiya, tarix, sotsiologiya, iqtisod bilimlari birgalikda birlashgan kurslar orqali o‘qitishga e’tibor kuchaymoqda. Gimnaziyada ayrim joylardagina geografiya qisman mustaqil fan sifatida o‘qitiladi. Ba’zi geografik bilimlar birlashgan kurslar turkumidagi fanlar ham beriladi. Yuqori sinflarda geografiya fanlarida kompleks muammolarini o‘rganishga ko‘proq e’tibor beriladi. Masalan: “insoniyatni ko‘payishi”, “ocharchilik muammolari”, ” Sanoat ekonomikasi” kabilar.

Darslarda o‘quvchilariga beriladigan topshiriladigan ham bir muncha murakkab, dasturda o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi keltirilgan , masalan:

Fransiya mакtablarida geografiya ta’limini bir muncha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Fransiyada geografiya dasturi bosqichli maktablarga mo‘ljallangan, shunisi qiziqliki, Fransiyada sinflar teskari hisob bilan yuritiladi.

I bosqich mакtab VI V IV III oliy ma’lumot olishga tayyorgarlik faqat litseylarda amalga oshiriladi.

II bosqich, II I va bitiruvchi sinflardan iborat. Germaniya talimida 6-sinfdan boshlanadi,bunda umumiy geografiya va Afrika materiki o‘rganiladi, 5-sinf da Amerika, Osiyo, Avstraliya,Antraktida 4-sinfda Yevropa, 3- sınıfda Fransiya geografiyasi o‘qitiladi. Litseyda o‘qishni davom ettirish 1-2 va bitiruvchi sinflarga to‘g‘ri keladi. 2-sinfda geografiya dasturi 6-5-4-3 sinflarda olgan bilim va ko‘nikmalar bilan chuqurlashtiradi. Asosiy maqsad o‘quvchilarni hujjatlar va birinchi manbalar bilan ishlashga o‘rganishdan iborat. Litseyning birinchi sınıfida Fransiyaga geografiyasi bo‘yicha o‘quvchilar 2 - bosqich maktabda olgan bilimlari mustahkamlanadi. Bitiruvchi sinflarda 4 ta yirik davlat AQSH, Rossiy, Xitoy, Yaponiya geografiyasi o‘rganiladi . Fransiya mакtablarida tabiiy va iqtisodiy geografiya bilimlari ishida ayniqsa, aholi geografiyasiga oid ma’lumotlar atroflicha o‘rganiladi. Rivojlanayotgan geografiyasi o‘rganilganda yevropalarning bu mamlakatlar uchun ko‘rsatgan g‘amxo‘rliklari ko‘rsatilgan. Masalan: fransuzlar o‘z mustamlakalari bilan mustaqillik bergen, ular madaniyati, tabiatni yaxshilash, tabiiy boyliklarni o‘zlashtirishlarga yangi yo‘llar ko‘rib bergenliklariga o‘quvchilar e’tiborini alohida qaratadilar.

Fransiya geografiyasi darsliklarning ustun tomoni shundaki, ular muammoli qilib yozilgan bo‘lib, barcha muammolar “ Inson va tabiat” mazmunidan kelib chiqadigan matnlardan iborat.Fillandiya mакtablarida ham geografiya ta’limi o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lib, geografiya o‘qitilishi rivojlangan kapitalistik mamlakatlar ichida bir muncha yuqori pag‘onada turdi. Mamlakatlarda ta’lim 2- bosqichdan iborat.

1 - bosqich 9 yillik majburiy umumta'lim xalq maktabi.

2 - bosqich gimnaziyalardan iborat.

1 - bosqich mактабда geografiya ta'limi 3-sinfdan boshlanadi va 9- sinfda tugaydi. 3-4 sinflarda o‘z mamlakatini va qo‘sni simoliy davlatlarning tabiatini va xo‘jaligiha oid ma’lumotlar beriladi. 3-sinfda o‘lkashunoslik asosida dars o‘tish ustun turadi O‘zi yashab turgan joining kartasi : ob-havo va iqlimi, birgalikda ishlangan relef kartalarini namoyish qiladi 3- sinfdagi geografiya 4- sinfda ham davom etadi va o‘qish metodlari bo‘yicha farq qilmaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda keyingi yillarda xalq maorifiga katta e’tibor berilmoqda. Masalan: Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida 1985- yilgacha xalq ta’limi uchun ajratilgan mablag‘lar 20 barobardan ortiq o‘sdi. Ayniqsa, Malaziya, Saudiya Arabiston, Iordaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Suriya, Hindiston, Pokiston kabi mamlakatlarda xalq maorifi rivojlanishi ancha yuqori bo‘ldi. Osiyodagi ko‘pchilik mamlakatlarda bolalar 5-7 yoshdan boshlab mакtabga bora boshlaydilar . Bangladesh, Birma, Livan, Pokiston, Shri- Lankada mакtabga 3 yoshdan boradilar. Osiyodagi ko‘pchilik mamlakatlarda majburiy ta’lim 5 yildan 10 yilgacha, o‘rta mакtabda o‘qishni davom ettirish esa 4 yildan 8 yilgacha.

Geografiya o‘quv dasturlari ko‘pchilik davlatlarda bir xil bo‘lib, mamlakatning tabiiy va iqtisodiy geografiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ko‘pchilik mamlakatlar mustamlaka bo‘lgan davrlarida o‘z geografiyasiga nisbatan ko‘proq mustamlakachi davlat geografiyasini o‘rganar edilar. Hozirgi kunda ko‘pchilik mamlakatlarda mustamlakachilik an’analari o‘qitish mazmuni va mrtodlari saqlanib qolgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet el davlatlari geografiya ta’limida o‘qitishda eng ko‘p ko‘llaniladigan metodlar quyidagilar hisoblanadi:

Evristik metod-bunda e’tibor o‘quvchilarni ko‘proq mustaqil bilim olishga, kichik tadqiqotlar qilishga o‘rgatishdan iborat . Kartinalar, turli xil hujjatlar, vositalar asosida mammoli savollar o‘quvchilar diqqatiga havola etiladi. Bir- biriga bog‘langan savollar asosida evristik suhbatlar o‘tkazish keng tarqalgan. Ishlab chiqrish jarayonini, ekalogik muammolar, suhbatlar o‘tkazish keng tarqalgan. Ishlab chiqarish jarayonini, ekologik muammolari turli o‘yinlar asosida o‘rganish.

XULOSA

Bunda o‘quvchilar o‘zlarini turli kompaniyalar prezidenti, biznesmenlar o‘rniga qo‘yib “ish” bajaradilar. Bunday metod ko‘proq AQSH, Buyuk Britaniya, Yangi zellandiya, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Tarqatma kartochkalar metodida turli chizma jadvallar, kartalar o‘quvchilar diqqatiga turlichay xatoliklarga yo‘l qo‘ylgan o‘sha xatoliklarini mustaqil topishlari talab qilinadi. Matnlar, ya’ni

javoblar to‘g‘ri- noto‘g‘ri tarzda aralashtirib berilishi ulardan to‘g‘rilarini raqamlar bilan belgilab ajratish keng tarqalgan metodlardan hisoblanadi.

Statistik manbalar bilan ishslash, kartografik qo‘llanmalardan foydalanish, matematik modullashtirish keng tarqalgan o‘qitish metodlari hisoblanadi. Ayniqsa diskussiya, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar geografiya ta’limida keng tarqalgan.

REFERENCES

1. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АҲАМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702.
2. Иброимов Ш.И.Ўғли (2021). АМУДАРЁ ҲОЗИРГИ ДЕЛЬТАСИНИНГ РЕЛЬЕФ СТРУКТУРАСИ ВА МЕЛИОРАТИВ ТАДБИРЛАР. Экономика и социум, (4-2 (83)), 1115-1119.
3. Oybek Uralovich Abdimurotov (2021). “YEVROSIYO MATERIGI”NI O‘QITISHDA “KEYS STADI” METODIDAN FOYDALANISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 377-382. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00048
4. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, Мансур Фармандириевич Бўрибеков, & Мақсуда Анвар Қизи Сатторова (2020). ЁШ АВЛОДГА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН-МОХИЯТИНИ ЕТКАЗИШ. Academic research in educational sciences, (3), 275-279.
5. Sherzod Ibroim O‘Gli Ibroimov, & Saida Zunnunovna Mirzarahimova (2021). GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI VA TRANSKRIPSIYASI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 789-798. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00100
6. Ражабов, Ф. Т., & Абдимуротов, О. У. (2020). ТАБИИЙ ГЕОГРАФИЯ КУРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСЛУБИЁТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.
7. Иброимов Ш.И. (2022). СТРУКТУРА РЕЛЬЕФА И МЕЛИОРАТИВНЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. Экономика и социум, (10-2 (101)), 699-703.
8. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, & Гулчехра Курдашевна Юсупова (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ (ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 370-378.

9. Уразбаев Абдукарим Кендираевич, Ражабов Фуркат Туракулович, & Иброимов Шерзод Иброим Угли (2022). METHODOLOGICAL BASIS FOR USING THE RELIEF PLASTIC METHOD IN STUDYING NATURAL AND ECONOMIC SYSTEMS OF RESERVOIR BASINS. Центральноазиатский журнал географических исследований, 1-2 , 29-36.

10. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Munisa Maxkambayevna Fatxullayeva (2021). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH. Academic research in educational sciences, 2 (10), 1148-1157.